

CHET TILLARDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR VA ULARNING O‘ZBEKCHA MUQOBILLARI: SEMANTIK ANIQLIK MASALALARI

Abdujabborova Sarvinoz Alisher qizi

FarDU filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar Dehqonov B.I. FarDU o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21240313>

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillardan (rus, ingliz, fransuz, nemis, arab, fors va boshqalar) o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar va ularga taklif etilgan o‘zbekcha muqobillarning semantik aniqlik masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy muammosi – o‘zlashma leksikani milliy muqobillar bilan almashtirish jarayonida denotativ, konnotativ va pragmatik jihatdan ekvivalentlikka erishish qiyinchiliklaridir. Material sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyuldagi 62-son bayonnomasiga ilova qilingan rasmiy ro‘yxatdagi o‘zlashma so‘zlar va ularning o‘zbekcha muqobillari, shuningdek, kundalik muloqot, ommaviy axborot vositalari va badiiy adabiyotdan olingan misollar asos qilib olingan. Maqolada quyidagi masalalar yoritilgan: o‘zbekcha muqobillarning asl so‘z ma‘nosini saqlash darajalari (to‘liq, qisman yoki umuman); so‘z yasash modellari (qo‘shma so‘z, yasama so‘z, sinonimik qator); muqobillarning terminologik barqarorligi va real nutqda qabul qilinish holati; hamda tarjima va leksikografiyada yuzaga keladigan amaliy muammolar. Ana shu masalalarning yoritilishi maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma leksika, o‘zbekcha muqobil, semantik aniqlik, denotativ ma‘no, konnotativ farq, pragmatik ekvivalentlik, terminologik standartlashtirish, so‘z yasash modellari, leksikografiya, til siyosati, ekvivalentlik darajalari, neologizm, milliy terminologiya.

“Parolingizni kiriting” – har kuni eshitamiz. Ammo “O‘roningizni kiriting” deyilsa, nima deysiz? Yoki “svetofor” o‘rniga “yo‘lchiroq”, “smartfon” o‘rniga esa “aqlifon” desak, chalkashmaysizmi? Aynan shu savollar o‘zbek tilining bugungi eng qizg‘in masalasiga aylangan: chet so‘zlarning o‘rniga yaratilayotgan milliy muqobillar asl ma‘noni qanchalik to‘g‘ri, aniq va chiroyli ifodalay oladi?

Til – tirik organizm. U o‘zgaradi, rivojlanadi va yangi so‘zlar bilan boyib boradi. O‘zbek tili tarixan arab, fors, rus, keyingi yillarda esa ingliz tili bilan faol aloqada bo‘lgan. Mustaqillikdan so‘ng “o‘zbek tilini chet so‘zlardan tozalash” g‘oyasi bor edi, ammo bu jarayon sekin kechdi. Chunki tilni sun‘iy “tozalash” uning tabiiy rivojiga to‘sqinlik qiladi, degan qarash keng tarqalgandi. Biroq 2025-yilda bu jarayon keskin jadallashdi. 2025-yil 30-iyuldagi 62-son bayonnoma bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi 40 ta xorijiy atamaning o‘zbekcha muqobillarini rasmiy muomalaga kiritdi. Ro‘yxatda paroldan tortib IT parkgacha, sillabusdan chellenjgacha – turli sohalardagi so‘zlar bor. Bu hujjat shunchaki tavsiya emas, balki davlat darajasidagi normativ hujjat. Ro‘yxatdagi har bir atama uchun “amaldagi qonunchilikda qo‘llanishi” ustunida real holat tahlili berilgan. Masalan, “avans” va “bo‘nak” baravar qo‘llanayotgani, “brusnik”ning muqobili “loyto‘skich” esa deyarli ishlatilmayotgani qayd etilgan. Shu o‘rinda muhim savol tug‘iladi: nega ba‘zi muqobillar tezda xalq tiliga singib ketadi, boshqalari qisman qabul qilinadi, ayrimlari esa mutlaqo “qog‘ozda qolib ketadi”? Buning sababi so‘zning qisqaligi, talaffuz qulayligi, shaffofligi, odatlanish omili va hatto “moda” darajasiga bog‘liq. Shuningdek, bir atamaga ikkita muqobili berilganda (bahs va munozara) chalkashlik yuzaga keladi.

1. Til siyosati va 2025-yilgi ro‘yxat

2025-yil 30-iyul. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi yig‘iladi va 40 ta xorijiy atamaning o‘zbekcha muqobillarini rasmiy muomalaga kiritadi. Ro‘yxatda paroldan tortib, IT parkgacha, sillabusdan chellenjgacha – turli sohalaridagi so‘zlar bor. Bu hujjat shunchaki tavsiya emas, balki davlat darajasidagi normativ hujjat. Har bir atamaning yonida “amaldagi qonunchilikda qo‘llanishi” ustuni bor. Unda real holat yozilgan: “Avans” va “bo‘nak” baravar qo‘llanmoqda, “brusnik”ning muqobili “loyto‘skich” esa deyarli ishlatilmayapti.

Til siyosati – bu faqat qog‘ozda qaror qabul qilish emas, balki xalq tilini kuzatish va unga moslashishdir. Aynan shu hujjat til siyosatining realistik va ilmiy asoslangan yondashuvining namunasidir.

2. O‘zlashma leksika va o‘zbekcha muqobil: bir so‘zning ikki dunyosi. O‘zbek tiliga asrlar davomida turli tillardan minglab so‘zlar kirib kelgan. Ularni o‘zlashma leksika deyiladi. Ro‘yxatdagi 40 ta atama qayerlardan kelgan: rus (pereplyot, vezdexod, svetofor), ingliz (bodikamera, smart, chellenj), fransuz (avans), nemis (aysberg, shurup), lotin va yunon (diskussiya, sillabus), fors (marshrut), italyan (portfolio). Bu xilma-xillik o‘zbek xalqining qancha madaniyat bilan aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi.

Har bir bunday so‘zning o‘rniga o‘zbekcha muqobil yaratish – til siyosatining muhim yo‘nalishi. Ammo muqobil yaratishning o‘zi yetarli emas. U xalq tiliga singishi kerak. Ba‘zilar singadi, masalan, bo‘nak. Boshqalari esa singmaydi, masalan, loyto‘skich

3. “Avans” va “bo‘nak” – teng kurash

Fransuz tilidan kelgan avance (“oldinga”) so‘zi yuz yillardan beri ishlatiladi. Uning o‘zbekcha muqobili – bo‘nak – “bo‘n” (old) va “-ak” qo‘shimchasidan tuzilgan. Denotativ ma‘no ¹(asosiy, predmet-mantiqiy ma‘no) to‘liq saqlangan: “oldindan beriladigan pul”. Pragmatik ekvivalentlik ²(qo‘llanish doirasi) jihatidan esa kichik farq bor: “avans” rasmiy ish yuritish uslubiga mansub, “bo‘nak” esa neytral.

Bugun banklarda, ish joylarida, savdo tarmoqlarida ikkala so‘z baravar qo‘llanadi. “Avans olmoqchiman” desangiz – tushunishadi. “Bo‘nak olmoqchiman” desangiz ham tushunishadi. 100 ta matndan 55 tasida bo‘nak, 45 tasida avans. Bu muvaffaqiyat. Rasmiy hujjatda shunday yozilgan: “Avans” va “bo‘nak” atamalari qonunchilik hujjatlarida, rasmiy ish yuritishda hamda joriy muloqotda barobar qo‘llanmoqda.

4. “Yetkazish” – asta-sekin g‘olib bo‘layotgan so‘z

Rus tilidan kelgan dostavka so‘zi ovqat yetkazish xizmatlari, reklamalar va onlayn do‘konlarda hali kuchli. Ammo yetkazish – bu yasama so‘z (“yet-” o‘zagi + “-kaz-” + “-ish” qo‘shimchalari) – rasmiy hujjatlar va oddiy so‘zlashuvda tobora ko‘proq qo‘llanmoqda. Bu neologizm (yangi yasalgan so‘z) asta-sekin o‘z o‘rnini topmoqda. Agar “yetkazish xizmati” desak, hamma tushunadi. Bir kuni dostavka

butunlay yetkazishga aylanib qolishi mumkin. Albatta, barcha muammolarning yechimi vaqtdir. 100 ta matndan 50 tasida yetkazish, 50 tasida dostavka.

5. “Aysberg” va “muztog” – ekzotik bilan mahalliy o‘rtasidagi “duel”

Tasavvur qiling: kema ulkan muz tog‘iga borib uriladi. Nemislar buni “Eisberg” (“muz tog‘i”), inglizlar “iceberg”, fransuzlar “iceberg” deyishadi. O‘zbeklar ham xuddi shunday yo‘l tutdi –

¹ Denotativ ma‘no – so‘zning lug‘aviy ma‘nosining asosiy, markaziy qismi bo‘lib, obyekt, hodisa, xususiyat yoki harakatni hissiy-ekspressiv qo‘shimchalarsiz, obyektiv va mantiqiy jihatdan ifodalaydi.

² Pragmatik ekvivalentlik – ikki tildagi so‘zlarning qo‘llanish doirasi, uslubiy mansubligi va muloqot vaziyatiga mosligi jihatidan tengligidir

“muztog”. Bu qo’shma so’z (muz+tog). Semantik aniqlik³ – to’liq: ikkala so’z ham bir xil narsani anglatadi. Ammo konnotativ farq⁴ (hissiy-ekspressiv qo’shimcha ma’no) bor: “aysberg” ekzotik⁵, “boshqa dunyo” hissi beradi. “Muztog” esa mahalliy, “o’zbekcha” tuyiladi. Nega “aysberg” hali kuchliroq? Chunki “Titanik” filmi, xalqaro yangiliklar – “aysberg” so’zini romantik tus bilan o’rab olgan. 100 ta matndan 80 tasida aysberg, 20 tasida muztog’. Ammo yoshlar orasida muztog’ asta-sekin ommalashmoqda. Balki 10 yildan keyin “aysberg”ni faqat keksalar eslar!

6. “Bodikamera” va “yonkamera” – yoshlar qaysi tomonda?

Inglizlar “body camera” (“tana kamerasi”) deyishadi. O’zbeklar esa “yonkamera”, chunki kamera yonga taqiladi. Bu juda o’zbekcha va mantiqiy. Ekvivalentlik darajalari bo’yicha bu – 2-darajali ekvivalentlik (qisman muvaffaqiyat, 20-40% oralig’ida). Qiziq tomoni: ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, Instagram) “yonkamera” 40% hollarda uchraydi. Rasmiy hujjatlarda esa “bodikamera” hali oldinda. Yoshlar yangi so’zni tez qabul qilmoqda. Pragmatik ekvivalentlik (qo’llanish doirasi) jihatidan: “bodikamera” hali rasmiy, “yonkamera” esa norasmiy muloqotda kuchaymoqda. Ehtimol, bir necha yildan keyin “yonkamera” g’olib chiqadi.

7. “Svetofo” va “yo’lchiroq” – xalqaro atamani o’zgartirish mumkinmi?

Ruscha svetofo” (“yorug’lik tashuvchi”) so’zi butun dunyoda shu shaklda yoki o’xshash shaklda qo’llanadi. O’zbekcha yo’lchiroq (yo’l+chiroq) to’g’ri va tushunarli. Bu qo’shma so’z modelining yana bir namunasidir. Terminologik standartlashtirish – ya’ni atamalarni bir xil qoidalar asosida yaratish – bu yerda to’g’ri qo’llangan. Ammo odamlar “svetofo” so’ziga 70-80 yil davomida o’rganib qolgan. Milliy terminologiya – o’zbek tilining o’ziga xos terminlar tizimi – asta-sekin shakllanadi, bir kunda o’zgarmaydi. 100 ta matndan 90 tasida svetofo”, 10 tasida yo’lchiroq. “Yo’lchiroq”ga o’tish bir avlodni talab qiladi. Balki farzandlarimiz “svetofo”ni umuman bilmas. Ammo hozircha bu – uzoq yo’l.

8. “Parol” va “o’ron” – urush boshlanmagan jang

“Parolingizni kiriting” – bu iborani har kuni eshitamiz. Uning o’zbekcha muqobili o’ron – “o’r” (maxfiy so’z) o’zagidan “-on” qo’shimchasi bilan yasalgan neologizm (yangi so’z). Juda ixcham va chiroyli. Ammo odamlar “parol” so’ziga shunchalik o’rganib qolganki, “o’ron” endigina sekin poylab kelmoqda.

Leksikografiya (lug’atchilik) nuqtai nazaridan, “o’ron” lug’atlarga kiritilgan, ammo odamlar uni ishlatmayapti. “O’ron” bor-yo’g’i 15% hollarda uchraydi. Bu poyga uzun bo’ladi. Ammo “o’ron” so’zi go’zal va o’zbekcha. U yo’qolib ketmaydi – aksincha, asta-sekin o’z o’rnini topadi.

9. “Qog’ozda qolgan” muqobillar: muvaffaqiyatsizlik sirlari

Ba’zi muqobillar hech qanday shov-shuvsiz, indamasdan o’lib ketdi. Ular lug’atlarda bor, lekin hech kim ularni ishlatmaydi. Ekvivalentlik darajalari bo’yicha ular – 3-darajali (muvaffaqiyatsiz, 10% va undan past) yoki hatto past darajali (umuman ishlatilmaydi). “Loyto’skich” – hech kim sezmagani o’lim. Ruscha brizgovnik (“suv toshqinida loyqa olib keladigan qurilma”)ning o’zbekcha muqobili loyto’skich (“loyni to’sadigan”). Ma’nosi to’g’ri, ammo bu so’zni birorta kishi ishlatmagan. Nega? Birinchidan, “to’skich” so’zi tushunarsiz – uni hech kim

³ Semantik aniqlik – so’z yoki iboraning ma’nosi aniq, tushunarli va bir ma’noli bo’lib, turli talqinlarga yo’l qo’ymasligidir.

⁴ Konnotativ farq – so’zlarning asosiy (denotativ) ma’nosi bir xil bo’lganda, ularning qo’shimcha hissiy-ekspressiv, baholovchi yoki uslubiy ma’nolaridagi tafovutdir
Ekzotik (yun. exōtikos – “chet ellik”, “begona”) – bir madaniyat yoki mintaqa uchun g’ayrioddiy, begona, chetdan kirib kelgan, mahalliy bo’lmagan hodisa, buyum yoki tushuncha

⁵

ishlatmaydi. Ikkinchidan, bu juda tor texnik soha. Mutaxassislar “brizgovik”ga o’rganib qolgan. So’z yasash modeli to’g’ri, ammo material – noto’g’ri tanlangan.

“Yo’ltanlamas” – uzoq va murakkab. Ruscha vezdexod (“hamma yo’lda yuradigan”) qisqa va tanish. O’zbekcha yo’ltanlamas (“yo’l tanlamaydigan”) esa 4 bo’g’in – uzunroq, og’irroq. 100 ta matndan 95 tasida vezdexod, 5 tasida yo’ltanlamas. Avtomobil ixlosmandlari: “Vezdexod – bu klassika. Uni o’zgartirishning nima keragi bor?” deyishadi.

“Rastushyovka” va “soyabardor” – san’at dunyosidagi sovuqqina qabul. Rassomlar va dizaynerlar “rastushyovka” yoki “gradient” so’zlarini ishlatadi. O’zbekcha soyabardor (“soya beruvchi”) juda mavhum. Rassom: “Soyabardor – bu nima? Soyami, bardormi?” – deb so’raydi.

Muvaffaqiyatsizlikning umumiy sababi: bu so’zlar juda tor sohaga oid, mutaxassislar o’z atamalariga o’rganib qolgan va ularni o’zgartirishni xohlamaydi. Yangi nom “keraksiz” va “sun’iy” tuyuladi.

10. Bir atamaga ikki muqobil: “diskussiya” – bahsmi yoki munozarami?

Ro’yxatdagi eng jiddiy semantik muammolardan biri – bir xorijiy atamaga bir nechta o’zbekcha muqobil taklif qilinishi.

O’zbek tilida “bahs” va “munozara” o’rtasida farq bor. “Bahs” – qizg’in, hatto janjalli muhokama. “Munozara” – ilmiy, tartibli, qoidalarga asoslangan muhokama. “Diskussiya” esa ikkalasini ham anglatadi. Semantik aniqlik – bu yerda pasaygan, chunki bir atama ikkala ma’noni qamrab oladi, ammo o’zbekcha variantlar ikkiga bo’linib ketgan. Monitoring: “diskussiya” o’rniga 70% hollarda bahs, 20% hollarda munozara, 10% hollarda esa “diskussiya” o’zicha qolmoqda. “Bahs” kundalik nutqda g’olib. “Munozara” esa ilmiy maqolalarda. Chalkashlik saqlanib qolmoqda.

2025-yilgi rasmiy ro’yxatdagi 40 ta o’zbekcha muqobil til siyosatining muhim hujjatidir. Monitoring shuni ko’rsatdiki, yangi so’zning taqdiri uning qanday yasalganiga emas, balki xalq uni qanday qabul qilganiga bog’liq. Tilni majburlab o’zgartirib bo’lmaydi – odamlar o’zlari tanlagan so’zni ishlatadi. Muvaffaqiyatli muqobillar (bo’nak, yetkazish, bahs) qisqa, tushunarli va kundalik muloqotga mos keladi. Muvaffaqiyatsiz muqobillar (loyto’skich, yo’llanlamas) esa uzun, tor sohaga oid yoki sun’iy bo’lgani uchun “qog’ozda qolib ketdi”. Bir atamaga bir nechta muqobil berish (bahs va munozara) terminologik chalkashlik tug’diradi. Yoshlar – til o’zgarishining asosiy kuchi, ijtimoiy tarmoqlar esa eng samarali vositadir.

Globalizatsiya davrida yangi xorijiy atamalar kirib kelishda davom etadi. Ularga o’zbekcha muqobil yaratish mumkin va kerak. Ammo bu jarayon ilmiy asoslangan, tizimli va xalq tiliga quloq solgan holda olib borilishi lozim. 2025-yilgi ro’yxat – to’g’ri yo’nalishdagi birinchi katta qadam. Undan xulosalar chiqarish, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tomonlarini tahlil qilish, keyingi qadamlarni shunga qarab belgilash zarur. Til tirik organizmdir. Yaxshi muqobillar yashaydi, yomonlari o’ladi. Davlatning vazifasi – yaxshi muqobillarni yaratish va ularni qo’llash uchun sharoit yaratish. Xalqning vazifasi – o’z tilini sevish va undan foydalanish. “Avansmi yoki bo’nak?”, “Svetofor yoki yo’lchiroq?” – bugungi kunda aniq javob yo’q. Til o’zgaradi – shuning uchun u tirik. Til tirik – shuning uchun u abadiy.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Dustmamatova D. Forms of Comparative Degree of Adjectives in Uzbek and Russian // International Journal of Central Asian Studies. 2021. Vol. 15. No. 1. P. 22-35.
2. Hamraeva D., Radjabova M. Пространственные и временные выражения в русском и узбекском языках (сравнительно-сопоставительный анализ) // Вестник Национального университета Узбекистана. 2025. № 3(2). С. 45-52.

3. Iskandarova Sh. O'zbek tili neologizmlari: yasalishi va qo'llanishi // O'zbek tili va adabiyoti. 2024. № 2. B. 33-41.
4. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). М.: Высшая школа, 1990. 253 с.
5. Muhamedova N., Asilova D., Kadirova S. O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. Toshkent: Akademnashr, 2022. 256 b.
6. Муаллифнинг шахсий мониторинги. Ижтимоий тармоқлар (Telegram, Instagram, Facebook), ОАВ ва расмий ҳужжатлар асосида 200 та матн таҳлили. 2025, сентябрь-декабрь. (Архивда сақланмоқда)
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyuldagi 62-son bayonnomasiga ilova. O'zbek tili qoida va me'yorlari asosida shakllantirilgan hamda rasmiy muomalaga kiritiladigan yangi so'z va atamalar ro'yxati. Toshkent, 2025.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 жилдли. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2022.
9. Усмонхўжаев Б. Ўзбек терминологиясининг долзарб масалалари. Тошкент: Фан, 2022. 120 б.